

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
ROMAN-GERMAN FILOLOGIYASI FAKULTETI  
ISPAN TILI AMALIY VA NAZARIY FANLAR KAFEDRALARI



“KO'P TILLILIK VA MADANIYATLARARO MULOQOT: TAJRIBA  
VA MUAMMOLAR”

“MULTILINGÜISMO Y COMUNICACIÓN INTERCULTURAL:  
EXPERIENCIA Y PROBLEMAS”

«МУЛЬТИЛИНГВИЗМ И МЕЖКУЛЬТУРНАЯ  
КОММУНИКАЦИЯ: ОПЫТ И ПРОБЛЕМЫ»

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari  
2023-yil 23-oktabr

Ташкент  
2023

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI 2023-YIL 23-OKTABR

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**  
**ROMAN-GERMAN FILOLOGIYASI FAKULTETI**  
**ISPAN TILI AMALIY VA NAZARIY FANLAR KAFEDRALARI**

**“KO‘P TILLILIK VA MADANIYATLARARO MULOQOT: TAJRIBA VA  
MUAMMOLAR”**

**“MULTILINGÜISMO Y COMUNICACIÓN INTERCULTURAL:  
EXPERIENCIA Y PROBLEMAS”**

**«МУЛЬТИЛИНГВИЗМ И МЕЖКУЛЬТУРНАЯ КОММУНИКАЦИЯ:  
ОПЫТ И ПРОБЛЕМЫ»**

**Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari**  
**2023-yil 23-oktabr**

**TOSHKENT – 2023**

Ushbu ilmiy-amaliy anjuman to'plami Ispan tili amaliy va nazariy fanlar kafedralari tomonidan 2023-yil 23-oktabrda "Ko'p tillilik va madaniyatlararo muloqot: tajriba va muammolar" mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tayyorlangan. Unda professor-o'qituvchilar, tadqiqotchi va talabalar, shuningdek xorijlik mutaxassislarining ko'p tillilik va madaniyatlararo muloqotning dolzarb masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari aks etgan maqola va tezislari jamlangan.

#### **Mas'ul muharrirlar:**

**Jamoliddin YOQUBOV** – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori,  
filologiya fanlari doktori

**Adilbek XALILLAYEV** – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Roman-german filologiyasi fakulteti dekani, PhD

**Dilrabo BAXRONOVA** – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori,  
DSc

**Aziza SHAMAXMUDOVA** – Samarqand davlat chet tillar instituti professori,  
DSc

#### **Tahrir hayati:**

**I.Turamuratova** – O'zDJTU Ispan tili nazariy fanlar kafedrasi mudiri, PhD,  
dotsent

**R. Turdiqulova** – O'zDJTU Ispan tili amaliy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

**Z. Achilova** – O'zDJTU Ispan tili nazariy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

**N. Sabirova** – O'zDJTU Ispan tili amaliy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

**S.Anarboyeva** – O'zDJTU Ispan tili amaliy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Ushbu ilmiy-amaliy anjuman O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni va O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirinig 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida tashkillashtirilgan.

## **HALIMA XUDOYBERDIYEVA– SO‘Z SEZGISI YUKSAK IJODKOR**

**Dildora Yunus qizi Yusupova**, *Buxoro davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi o‘qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi (PhD)*

*e-mail: [dilyusupova3330@gmail.com](mailto:dilyusupova3330@gmail.com)*

**ANNOTATSIYA:** Halima Xudoyberdiyevaning til ilmidan to‘la xabardor bo‘lgan, badiiy didi, so‘z sezgisi va mahorati yuksak ijodkor ekanligi u yaratgan betakror tasvir, kutilmagan, ohorli badiiy lavhalar, so‘z chaqinlarini paydo qila olishida seziladi. Mazkur maqolada shoiraning ma’nodosh so‘zlardan foydalanish mahorati tahlilga tortilgan.

**Tayanch so‘zlar:** til va yozuvchi, sinonimiya, matniy sinonimlik

Tilda har bir unsurning o‘z vazifasi, ma’no doirasi, boshqa unsurlar, birliklar bilan bog‘lanish qonuniyatlari, ya’ni leksik valentlik hodisasi mavjud. Ana shu qonuniyatlardan to‘la xabardor bo‘lgan, badiiy didi, so‘z sezgisi va mahorati yuksak ijodkor betakror tasvir, kutilmagan, ohorli badiiy lavhalar, so‘z chaqinlarini paydo qila oladi-ki, kitobxon uning nafaqat g‘oyasi, balki go‘zal tilining asiriga aylanadi. Olimlar til va yozuvchi o‘rtasidagi munosabatni shaxmat va shaxmatchi o‘rtasidagi munosabatga qiyoslaydilar [1]. Shaxmatda har bir donaning mavqeyi, darajasi, shaxmat taxtasi ustidagi harakatlanish qoidalari avvaldan belgilangan. Ana shu qoidalarni tugal egallash oqibatida yuzaga kelgan yuksak mahorati tufayli shaxmatchi tamoman yangi, kutilmagan yurishlar qiladi, betakror kombinatsiyalar yaratadi-ki, bu unga raqibini mag‘lub va muxlisini maftun qilish imkonini beradi. Ijodkor umumxalq tilidagi badiiy tasvirga favqulodda muvofiq birliklarni tanlash, saralash va sayqallash asosida, lisoniy-badiiy qonuniyatlardan kelib chiqqan holda ularga yuklangan xilma-xil badiiy-estetik ma’nolar hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

So‘z qo‘llashning san’at darajasida yoki san’at darajasida emas ekanligini baholash uchun, eng avvalo, so‘z, uning ma’nosi va bu ma’noning aslini aniq tasavvur, his etish lozim. Albatta, so‘zning qo‘llanishi bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadigan qo‘shimcha ma’no nozikliklari, mazmun o‘zgachaliklari turli tasvir

usullari va vositalari orqali reallashishi mumkin. Ammo ta'kidlash joizki, bunday qo'shimcha ma'no nozikliklari aksariyat hollarda, avvalo, so'z ma'no qurilishining o'zida imkoniyat sifatida mavjud bo'ladi, ular so'zning ma'no qurilishi tarkibida ilgari qayd etilgan bo'ladi [2].

Ma'lumki, tildagi nominativ birliklarning ma'no tuzilishini o'rganishda tilshunoslikda semantikaning konnotativ jihati tushunchasiga alohida e'tibor qilinadi. Bu masalani monografik tarzda tadqiq etgan V.Teliya ta'rificha, "konnotatsiya – til birliklari semantikasiga uzual yoki okkazional ravishda kiradigan, nutq subyektining borliqni jumlada ifodalashida uning ayni shu borliqqa bo'lgan hissiy-baholash va stilistik munosabatini ifodalaydigan hamda shu axborotga ko'ra ekspressiv qimmat kasb etadigan mazmuniy mohiyat" [3] dir. Konnotatsiya, ta'rifidan ko'rinib turganiday, so'zlovchining borliqni ifodalash vositalariga munosabatiga daxldor bo'lgan jihat hisoblanadi [3].

V.Teliya so'zning leksik ma'nosini, kamida, uch makrouzvning kombinatsiyasi sifatida tasavvur etish mumkinligini aytadi: 1) ma'noning borliqdagi muayyan reallikni ifodalovchi denotativ uzvi; 2) kategorial-grammatik uzvi; 3) nutq subyektining so'z orqali ifodalangan narsaga munosabatini anglatadigan emotiv-modal uzvi.

Ana shu uchinchi uzv ekspressiv bo'yoq, uslubiy bo'yoq, emotsional bo'yoq, subyektiv baho kabi tushunchalarni umumlashtiruvchi konnotativ ma'nolardir. Bunday uzvning mazmun-mohiyati o'zbek tilshunosligida ham ancha keng ochib berilganligini qayd etishimiz zarur.

Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida ijodkorning tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular ijodkorning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi. Buning uchun badiiy asar tilidagi ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli, tarixiy va arxaik so'zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so'zlar, chet va vulgar so'zlar ajratib olinadi va ulardan asarda qanday maqsadda foydalanilgani izohlanadi.

O‘zbek tili ma’nodosh so‘zlarga juda boy. So‘z qudratini, nafosatini, uning ta’sir kuchini his eta oladigan, til sezgirligi yuqori bo‘lgan haqiqiy ijodkorgina tilimizdagi ma’nodosh so‘zlar ichidan tasvir maqsadi va ruhiyatiga muvofiq keladigan aniq munosib so‘zni topib o‘z asarida qo‘llaydiki, shu tariqa o‘z o‘rniga tushgan so‘z o‘quvchini ohanrabodek o‘ziga tortadi, uning tiliga, diliga ko‘chadi. O‘z o‘rnida qo‘llanilgan so‘zgina qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha real ko‘rsatib berishga qodir bo‘ladi. Badiiy matndagi ma’nodosh so‘zlar tahlilida, asosan, ikki jihatga e’tiborni qaratish zarur. Halima Xudoyberdiyeva –

1) ikki yoki undan ortiq ma’nodosh so‘zdan ifodalanayotgan mazmun uchun eng maqbul birini tanlaydi. Jumladan,

jannat ~ behisht ~ rizvon

Quyidagi she’rda shoira behisht so‘zi o‘rnida uning boshqa sinonimlari jannat yoki rizvon so‘zlarini qo‘llasa ham, she’r vazniga (bo‘g‘in soniga) putur yetmas edi. Ammo shoira deyarli barcha o‘zbek uchun umumiste’mol so‘zga aylanib ulgurgan jannat birligini qo‘llamaydi yoki “Qur’oni Karim” oyatlaridan, hadisi shariflardan xabardor bo‘lmagan kishi rizvon so‘zining lug‘aviy ma’nosini tushunmasligi ham tabiiy hol. Shunday sharoitda ijodkor “ko‘pchilikning qulog‘iga tekkan” birlik(behisht)ni ajratib qo‘llaydi-ki, bu uning so‘zdan o‘rinli foydalana olish mahorati bilan bog‘liq.

Ustoz G‘afur hakimona bashorat qila bilgan – Qalb qonidan bo‘lmoqligin qiz deganning barini. Odam Ato yigit chog‘da qiz bola deb quvilgan, O‘ksinmasdan tashlab ketgan behishtning bog‘larini. (“Singlim Gulnoraga” she’ridan)

Mazkur she’rdagi o‘ksinmasdan so‘zi o‘rnida ranjimasdan birligini qo‘llash ham mumkindek ko‘rinadi, biroq o‘ksinmaslik so‘zining ma’no darajasi ranjimaslik, hatto xafa bo‘lmaslik, achchiqlanmaslik kabilardan ko‘ra yuqoriroq.

bo‘ron ~ to‘fon ~ bo‘hron ~ qasirg‘a: Nahot sor burgutni shubhalar yengdi, Nechun qarashingda azob surati. Ne uchun ko‘zingda gohi gohi endi, Men uqib yetmagan to‘fon turadi. (“Iqrorlik” she’ridan)

Band oxirida shoira nega aynan to‘fon so‘zini qo‘llagan? “Men uqib yetmagan to‘fon turadi” misrasida qofiya jihatidan bo‘ron, bo‘hron so‘zlari ham to‘g‘ri keladiku? Yoki bu qo‘llash tasodifiymi?

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga murojaat etamiz.

Bo‘ron 1 To‘zon yoki qor-yomg‘ir aralash esadigan shiddatli shamol. Bo‘ri bo‘ronda quturar. (Maqol)

...3 ko‘chma Shiddatli, davomli harakat; oqim; to‘fon. Nahot yovuz bo‘ron xasdek uchirgay.

To‘fon [a] kuchli suv toshqini; zo‘r g‘avg‘o; to‘polon. 1 Shiddatli bo‘ron, dovul. ...terakning shovullashi to‘fon bosib kelayotgandek kuchayaverdi. (A.Muxtor)

...4 Diniy afsonalarga ko‘ra, odamlarning gunohi uchun butun dunyoni bosgan suv toshqini.

Agar izohlarga e‘tibor bersak, o‘z ma‘nosiga ko‘ra bo‘ron – shiddatli shamol; to‘fon esa kuchli suv toshqini. Aslida bu so‘zlar zamiridagi harakatning tezligi (shiddatli, kuchli) o‘zaro ma‘nodosh. Ammo bo‘ron va to‘fon tabiatdagi bir xil hodisalar emas. Aslida, “Ne uchun ko‘zingda gohi gohi endi, Men uqib yetmagan to‘fon turadi” misralarida ko‘chma ma‘no bo‘lib, undan “o‘zim bilmagan qaysi gunohlarim uchun sening ko‘zuringda (menga atalgan) kuchli suv toshqini turibdi”, degan mantiq kelib chiqyapti. Agar inson ko‘zi orqali suv (ko‘zyoshi) to‘kishini va yana kishi, odatda, o‘ziga juda yaqin tuyg‘u–muhabbatdan voz kechayotganda ham ko‘zlaridan achchiq alam yoshi chiqishini hisobga olsak, misrada to‘fon so‘zi o‘rnida kuchli shamol ma‘nosini beruvchi bo‘ron so‘zini qo‘llay olmaymiz.

Demak, shoiraning she‘riy misrada to‘fon so‘zini qo‘llashi tasodifiy emas.

ko‘klam ~ bahor ~ navbahor: Hali ham ketgan yo‘q madori, Hali soz sozlarga o‘xshaydir. Bahordan yosh edi bahori – Kuzi ham yozlarga uxshaydir. (“Kuzgi daraxt” she‘ridan)

oqshom~tun~ kechqurun~ shom: Balki kimdir zor ketgandir mehrim, yurak taftimga, O‘ltiribman yashab o‘tgan umrim qisqa tuyulib Yarim umr o‘tdi, oldim,

yurak, seni kaftimga – G‘amgin shotut soyasida shom kelarkan quyulib. (“Yarim umr o‘ylari” she‘ridan)

2) ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma‘nodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg‘un holda qo‘llashi masalasidir. Chunonchi,

dil~ko‘ngil~yurak: Deylik, bir but dilga sachrab ketdi qon, Bir ko‘ngil o‘tlarda qovrilar, tutar. Ayting, malham qayda, kelar u qachon, Bir ko‘ngil yarasi qanchada bitar? Menga mana shuning hisobi kerak, Tag‘in izi qolmay bitarmi yurak? (“Hisob-kitob haqida” she‘ridan)

sevgi ~ ishq ~ muhabbat: Muhabbat, sevardim seni jon qadar, Sen bunda ishqmas, yo‘q, kulfatsan, mastsan. Sevgi, sen ham endi ketarsan badar, Qaytib bu kuylakni dazmollamassan. (“Eng toza meva” she‘ridan)

ma‘yus~mungli~ munis: Ko‘nglim ma‘yus tortadi kuzgi bog‘dagi holdan – Qushlar mungli, izlashar xayrlashmoq chorasini. Rangpar daraxtlar munis sollarishib shamolda, Bosh chayqashib qilarlar “yoq, yo‘q” ishorasini. (“Kuzgi bog‘” she‘ridan)

ona~ena; dast~qo‘l: Bellari bukilib, ko‘tararkan dast, Ezgu umidlarga yo‘g‘rilgan chog‘da Munavvar kelajak ota-onamas, Enalar qo‘lida yo‘lga kirmoqda. (“Onalar haqida” she‘ridan) Ma‘nodoshlik paradigmasi doimo ochiq. Jamiyat, davr talabi asosida keraksizi iste‘moldan chiqib, qator yangilari bilan boyib boraveradi. Nutqda ma‘nodoshlik qatorlari nutqning atash birliklari, iboralar, mustaqil leksema sememalarining turi, yasama so‘z, so‘z birikmasi, nutqiy ko‘chma so‘z bilan to‘lib, kengayib boradi. Bular kontekstual sinonim sifatida nutqning go‘zalligi va boyligini ta‘minlovchi vosita sanaladi [4]. Ma‘nodoshlikdan ikki holatda–

1) nutqiy hosilalarning takrori natijasida yuzaga keladigan ifoda kambag‘alligi, rangsizligi va siyqalikdan qochish uchun;

2) tasvir obyektiga e‘tiborni jalb qilish uchun rang-baranglikni ta‘minlash maqsadida foydalaniladi.

Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida muvaqqat yoki matniy ma‘nodoshlik hodisasiga ham duch kelamiz. Mahoratli ijodkorlar faqat tilda mavjud bo‘lgan, tayyor ma‘nodosh birliklardangina foydalanmasdan, badiiy tasvir ehtiyojiga ko‘ra



ma'nodosh bo'lmagan so'zlarni ham shunday qo'llaydilarki, o'quvchi, kitobxon tomonidan bu so'zlar ham matnda xuddi ma'nodosh so'zlar kabi idrok etiladi. Masalan,

qiz~gul: Bu qiz ham birovga ketadigan gul, Ushlab qololmagay na zar, na tillo. Mendan-da mehribon kimsa bo'lar ul– Mevdan-da vafodor chiqar ul illo. (“Bu o'g'il meniki emas aslida...” she'ridan)

hayot~yo'lak: Voajab, bul qadar yolgizlik nega, G'aroyib bu hayot – biz o'tar yo'lak. Hech kim, hech narsaga men bo'lmam ega, Sevgilim, senga o'z ishqimdan bo'lak. (“Bu o'g'il meniki emas aslida...” she'ridan)

Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida matniy sinonimlar shu darajada ko'p va rang-barangki, ular shoira ijodida quyma misralarning yuzaga kelishini ta'minlovchi vositalardan biriga aylangan.

#### **Adabiyotlar:**

1. Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари.— Тошкент: Фан, 2006.
2. Умуркулов Б. Бадий адабиётда сўз. — Тошкент: Фан, 1993.
3. Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. — М., 1986.— С.5.
4. Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. — Самарқанд: Зарафшон, 1992.
5. Бахронова Д. Лингвокультурные особенности зооморфных фразеологических единиц // Вестник ЧелГУ. 2016. №9 (391). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/lingvokulturnye-osobennosti-zoomorfnyh-frazeologicheskikh-edinit>
6. Бахронова Д. К. Антропоморфизмларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. — Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2018. — 100 б.
7. Бахронова Д. Оламнинг лисоний манзараси тасвирида концепт ва концептосфера. // Хорижий филология, 2019. — №3. — Б. 62-68.

#### **NUTQIY MULOQOTDA SUKUT HODISASI**

**Dilorom Nigmatovna Yuldasheva**, Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida professori, pedagogika fanlari nomzodi

## MUNDARIJA

KIRISH .....	3
Ilhomjon To‘xtasinov CHET TILLARNI O‘QITISHDA XALQARO TAJRIBA VA INNOVATSION YONDASHUVLARNI O‘QUV JARAYONIGA TATBIQ ETISHNING AHAMIYATI.....	4
Rafael del Moral EL NUEVO ORDEN MUNDIAL DE LAS LENGUAS.....	10
Hamdulla Dadaboyev “DEVONU LUG‘OTIT TURK”DA IFODALANGAN UST KIYIM NOMALARINING HOZIRGI TURKIY TILLARGA MUNOSABATI..	13
Qudratulla Omonov “DEVONU LUG‘ATIT TURK” QO‘LYOZMASI VA MAHMUD KOSHG‘ARIYNING ILMIIY-GEOGRAFIK MEROSI HAQIDA.....	25
Светлана Борисовна Им ПРИЗНАКИ РЕКЛАМНОГО ТЕКСТА.....	33
Жамолиддин Ёқубов ФРАНЦУЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА “МУҲАББАТ” ТУРЛАРИ ИФОДАЛАНИШИНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	36
Dilrabo Bakhronova ZOROASTRISM AND ITS ELEMENTS IN CENTRAL ASIA.....	46
Zokir Bazarov EXPLORING THE USE OF COLOR IN IDIOMS: A COMPARATIVE ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEK EXPRESSIONS REFLECTING INNER EMOTIONS.....	54
Xalimova Firuza Rustamovna KONSEPTNING LINGVOMADANIY HODISA SIFATIDA O‘RGANILISHI.....	60
Safarov Shahriyor, Shamaxmudova Aziza ACTOS DE HABLA DIRECTIVOS - COMO ACTOS QUE AMENAZAN LA IMAGEN.....	66
Ulugova Shoxida Shoxruxovna BADIY MATNNING KONSEPTUAL STRUKTURASI.....	70
Дилрабо Келдиёровна Бахронова, Дилором Нигматовна Юлдашева МОЛЧАНИЕ – ПРАГМАЛИГВИСТИЧЕСКИЙ ФЕНОМЕН.....	75

Sherali Ishankulovich Ertayev INGLIZ TILIDAN DARIY TILIGA KIRGAN HARBIY O‘ZLASHMA TERMINLAR.....	90
Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna OLIY TA‘LIM MUASSASALARI TALABALARIGA ISPAN TILI IJTIMOIIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI MOBIL ILOVALAR ORQALI O‘QITISH.....	97
Ahmedova Dilfuza Rafukjanovna SON SO‘Z TURKUMI GAZETA MATNLARI O‘ZIGA XOS USLUBIY JIHATINI KO‘RSATUVCHI GRAMMATIK KATEGORIYA SIFATIDA.....	102
Oltiyev Temir Jonimboyevich ZAMONAVIY ISPAN TILIDA ASOSIY GAPLAR SEMANTIKASI VA PRAGMATIKASINING TAHLILI.....	110
Dildora Yusupova HALIMA XUDOYBERDIYEVA– SO‘Z SEZGISI YUKSAK IJODKOR.....	116
Dilorom Yuldasheva NUTQIY MULOQOTDA SUKUT HODISASI.....	121
Турамуратова Ирода МЕТАФОРА КАК КОГНИТИВНЫЙ ЭЛЕМЕНТ ПЕРЕДАЧИ ЭМОЦИЙ НА ПРИМЕРЕ ИСПАНСКОГО ЯЗЫКА.....	126
Турамуратова Ирода, Хамидуллаев Хасанхужа ЭФФЕКТ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА: ПРИНЯТИЕ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ БИЛИНГВИЗМА.....	130
Фаттахова Дилорам РОЛЬ ЯЗЫКА В ПРОЦЕССЕ ОБЩЕНИЯ И КУЛЬТУРЫ.....	138
Ахмедова Мукаддас ТЕКСТ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ ИЗУЧЕНИЯ.....	142
Ахмедова Муяссар, Ахмедова Малика ТИЛ ВА МАДАНИЯТ ЎРТАСИДАГИ МУНОСАБАТЛАР.....	147
Bakhronova Dilrabó, Mukhamedova Mukaddaskhon ENSEÑANZA DE LAS PALABRAS COMPUESTAS EN LA LENGUA ESPAÑOLA PARA UN GRUPO DE LOS ESTUDIANTES EXTRANJEROS.....	154
Турамуратова Ирода, Мухамедова Мукаддасхон КОНЦЕПТЫ ЭМОЦИЙ В ИСПАНСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ.....	160
Сирожиддин Нурматов ПАЛИЙ, ПРАКРИТ ВА АПАБҲАРАНША ТИЛЛАРИДАГИ СОНЛАРГА ХОС ЛЕКСЕМАЛАРНИНГ	